




2023-yilning yanvar– sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 53 564,3 mlrd. soʻmni yoki 2022- yilning shu davriga nisbatan 111,3 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi 124,1 % ga oʻsib, 23 993,9 mlrd. soʻmni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 44,8 % ni tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi (avto savdo va ovqatlanishni
qoʻshmaganda) tarkibi, foizda
(2023- yil yanvar–sentabr holatiga)**




2023-yilning yanvar–sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari boʻyicha quyidagicha ifodalanadi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmda katta ulushga ega boʻlgan Chilonzor tumani 17,8 %, Yunusobod tumani 11,6%, Shayxontohur tumani 9,8%, Yakkasaroy tumani 9,3 %, Uchtepa tumani 8,5%, Yashnobod tumani 8,3%, Olmazor tumani 8,1%, Mirobod tumani 8,2%, Mirzo Ulugʻbek tumani 7,7%, Sergeli 5,5%, ni tashkil etgan boʻlsa, Bektemir 3,5%, Yangiheyot tumani 1,5% bilan eng past koʻrsatkichni qayd etdi.

Tumanlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda

2023 -yil yanvar–sentabr oylarida



Chakana savdo tovar aylanmasining tumanlar kesimida o'sish sur'ati, foizda

2023 -yil yanvar–sentabr oylarida






Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasi barcha tumanlarda o'sish kuzatilgan, jumladan eng katta o'sish sur'ati Yangiheyot tumani 142,0 %, Mirzo Ulug'bek tumani 119,8 % va Yakkasaroy tumani 118,2% bilan Toshkent shahrida yetakchilik qilmoqda, o'sish sur'ati nisbatan pastroq ko'rsatkichlar: Olmazor tumani 107,6 %, Uchtepa tumani 103,1 %, Yunusbod tumani 103,0 % ni tashkil etgan.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 5 259,1 mlrd. so'mni va o'sish sur'ati 110,8 % ni tashkil etgan. Ichki savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 2,8 % ni tashkil etdi.

Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Shayxontohur tumani 28,5 %, Yunusbod tumani 13,0 % , Mirzo Ulug'bek tumani 9,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, Yangiheyot tumani 1,5 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

**Tumanlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalari
savdo aylanmasi ulushi, foizda
2023 -yil yanvar–sentabr oylarida**



Avto savdo va ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 17,9 mln. so'mni tashkil etdi. O'rtacha aholi jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Yakkasaroy tumani (38,5 mln. so'm), Chilonzor tumani (34,9 mln. so'm), Bektemir tumani (33,1 mln. so'm), Mirobod tumani (29,1 mln. so'm), Uchtepa tumani (15,4 mln. so'm) kuzatildi.

Tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi
(2023-yil yanvar-sentabr, avto savdo va umumiy
ovqatlanishni qo'shmagan holda)

	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2022- yil yanvar- sentabrga nisbatan, % hisobida</i>	<i>ming so'm</i>	<i>2022- yil yanvar- sentabrga nisbatan, % hisobida</i>
Toshkent shahar	53 564,3	111,3	17 924,1	107,9
<i>tumanlar:</i>				
Bektemir	1 901,2	109,2	33 122,7	101,0
Mirzo Ulug'bek	4 135,9	119,8	12 683,0	116,7
Mirobod	4 384,1	118,1	29 111,1	115,5
Olmazor	4 357,3	107,6	10 928,8	105,0
Sergeli	2 931,6	112,2	17 821,1	104,3
Uchtepa	4 571,4	103,1	15 449,0	100,6
Chilonzor	9 535,3	110,5	34 902,3	108,6
Shayxontohur	5 267,2	109,2	14 534,2	107,5
Yunusobod	6 232,4	103,0	16 821,7	100,6
Yakkasaroy	4 986,3	118,2	38 504,6	114,2
Yashnobod	4 468,8	116,1	15 225,9	111,7
Yangihayot	792,6	142,0	4 772,1	132,5




2023-yilning yanvar–sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 112 218,2 mlrd. soʻmni yoki 2022-yilning shu davriga nisbatan 114,4 % ni tashkil qildi.


Yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 35,5 % ga teng boʻlib, hajmi 39 816,7 mlrd. soʻmni tashkil etganini koʻrish mumkin.

Xususan, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega boʻlgan Olmazor tumani 14,3 %, Yashnobod tumani 13,6 % ni tashkil etgan boʻlsa, Bektemir tumani 1,2 % va Yangihayot tumani 0,9 % ulush bilan eng past koʻrsatkichni qayd etdi.

Tumanlarning ulgurji savdo (avto savdosiz) tovar aylanmasidagi ulushi, foizda
2023-yil yanvar–sentabr oylarida



Ulgurji savdo tovar aylanmasi (avto savdosiz) tarkibi, foizda
2023- yil yanvar–sentabr oylarida



Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 6,9 % ga ko'payib, 72 401,5 mlrd. so'mga yetdi va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 64,5 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi (avto savdosiz)

(2023- yil yanvar-sentabr)

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
Toshkent shahri	72 401,5	100,0
<i>tumanlar</i>		
Bektemir	1 256,1	1,7
Mirzo Ulug'bek	7 211,4	10,0
Mirobod	10 966,6	15,1
Olmazor	8 645,6	11,9
Sergeli	2 455,2	3,4
Uchtepa	6 200,9	8,6
Chilonzor	9 652,7	13,3
Shayxontohur	4 796,2	6,6
Yunusobod	6 425,0	8,9
Yakkasaroy	7 619,2	10,5
Yashnobod	6 477,8	8,9
Yangihayot	694,8	1,0

**Yirik korxonalarning ulgurji savdo (avto savdosiz) tovar aylanmasi***(2023- yil yanvar-sentabr)*

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
Toshkent shahri	39 816,7	100,0
<i>tumanlar</i>		
Bektemir	124,2	0,3
Mirzo Ulug'bek	2 295,2	5,8
Mirobod	2 407,4	6,0
Olmazor	7 408,0	18,6
Sergeli	3 031,7	7,6
Uchtepa	593,4	1,5
Chilonzor	4 487,4	11,3
Shayxontohur	2 075,9	5,2
Yunusobod	3 242,0	8,1
Yakkasaroy	5 070,7	12,7
Yashnobod	8 798,2	22,1
Yangihayot	282,7	0,7

Toshkent shahrida yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 130,9 % ga o'sib, 39 816,7 mlrd. so'mni va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 35,5 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmda katta ulushga ega bo'lgan Yashnobod tumani 22,1 %, Olmazor tumani 18,6 %, Yakkasaroy tumani 12,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, Yangihayot 0,7 % va Bektemir tumanlari 0,3 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

Yirik korxonalarning chakana savdo (avto savdosiz) tovar aylanmasi (2023- yil yanvar-sentabr)

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
Toshkent shahri	23 993,9	100,0
<i>tumanlar</i>		
Bektemir	337,4	1,4
Mirzo Ulug'bek	2 265,1	9,4
Mirobod	2 669,6	11,1
Olmazor	1 940,7	8,1
Sergeli	1 580,8	6,6
Uchtepa	840,0	3,5
Chilonzor	4 555,6	19,0
Shayxontohur	3 176,7	13,2
Yunusobod	2 036,3	8,5
Yakkasaroy	2 182,8	9,1
Yashnobod	1 994,0	8,3
Yangihayot	414,9	1,7

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi hajmda katta ulushga ega bo'lgan Chilonzor tumani 19,0 %, Shayxontohur tumani 13,2 %, Mirobod tumani 11,1 %, ni tashkil etgan bo'lsa, Yangihayot tumani 1,7 % va Bektemir tumani 1,4 %, ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.



Yirik korxonalarning umumiy ovqatlanish tovar aylanmasi
(2023- yil yanvar-sentabr)

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
Toshkent shahri	2 108,5	100,0
<i>tumanlar</i>		
Bektemir	50,0	2,4
Mirzo Ulug'bek	34,9	1,7
Mirobod	66,0	3,1
Olmazor	18,4	0,9
Sergeli	311,9	14,8
Uchtepa	-	-
Chilonzor	46,4	2,2
Shayxontohur	1 136,8	53,9
Yunusobod	263,8	12,5
Yakkasaroy	52,2	2,5
Yashnobod	128,1	6,1
Yangiheyot	-	-

Yirik korxonalarning umumiy ovqatlanish tovar aylanmasi hajmda katta ulushga ega bo'lgan Shayxontohur tumani 53,9 %, Sergeli 14,8 %, Yunusobod tumani 12,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, Olmazor tumani 0,9 % eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Chakana savdo – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya'ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste'mol sohasiga o'tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

Chakana tovar aylanmasi – tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat'i nazar, aholiga iste'mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochkalari, kredit kartochkalari, banklarning hisob cheklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

Umumiy ovqatlanish – yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste'molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalga oshirish.

Umumovqatlanish aylanmasi – joyida aholiga iste'mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirkorlarga o'zi ishlab chiqargan kulinariya mahsulotlarini (taom, kulinariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulinariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolatli va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

Ulgurji savdo – tijorat maqsadlarida yoki o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo'yicha sotish.

Iste'mol tovarlari – yakuniy iste'molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

Texnik-ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar – ishlab chiqarish iste'moli uchun mo'ljallangan mahsulot: xomashyo, materiallar, yoqilg'i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtiyot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – tuzilgan shartnomalar bo'yicha tijorat maqsadlarida (kelajakda qayta ishlash yoki sotish) yoki o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.